

NEMIS VA O'ZBEK MAQOLLARINING MAVZU JIHATDAN BIR-BIRIGA O'XSHASH TAMONLARI

Mirzayeva Xurshida Olimjonovna
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada nemis tili va o'zbek tillaridagi maqollarning tarjimasi, ma'nosi va ularning o'xshash va farqli tomonlari tahlil qilingan. Shu bilan birga nemis tili va o'zbek tillaridagi maqollarning tematik qiyosi o'rganilgan. Bundan tashqari har ikkala tilda mavjud bo'lgan maqollarning ma'lum mavzu doirasiga kirishi va bu mavzuga doir maqollarning har ikkala tilda muqobil variantlarini topa olish orqali xalqning ayrim o'ziga xos xususiyatlarni ifodalashga harakat qilamiz.

Kalit so'zlar: maqol, tematik ma'no, o'xshashlik, o'zbek tili, nemis tili, o'zbek maqoli, nemis maqoli

SPRACHKULTURELLE UND SEMANTISCHE MERKMALE DEUTSCHER UND USBEKISCHER SPRICHWÖRTER

Mirzayeva Xurshida Olimjonovna
Masterstudentin der Usbekische Staatliche Weltsprachen Universität

Anmerkung. In diesem Artikel analysieren wir die Übersetzung, Bedeutung sowie Ähnlichkeiten und Unterschiede von Sprichwörtern auf Deutsch und Usbekisch. Gleichzeitig werden thematische Vergleiche von Sprichwörtern in deutscher und usbekischer Sprache untersucht, wir versuchen, die Eigenschaften von dem Volk auszudrücken.

Schlüsselwörter: Sprichwörter, thematische Bedeutung, Ähnlichkeit, Usbekisch, Deutsch, usbekische Sprichwörter, deutsche Sprichwörter.

KIRISH

Millatni o'zligini ko'rsatuvchi milliy qadriyatlarni, xalqning madaniyatini ifodalovchi omillardan biri bu xalq og'zaki ijodidir. Xalq o'g'zaki ijodining eng muhim janrlaridan biri bo'lmish maqollar tilshunoslik va folklorshunoslikda o'rganilayotgan eng muhim mavzulardan biridir. Folklorning eng muhim janrlaridan biri bo'lgan maqollarni, umuman, xalq ijodiyotini o'rganish, tadqiq qilish, bugungi kunda juda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Maqol — xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli janr. Muayyan ritmik shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Har bir tilimiz ko'rkini, nutqimiz nafosatini, aql-farosat va tafakkurimiz mantiqini hayratomuz bir qudrat bilan namoyish etgan va eta oladigan bunday badiiyat qatralari xalqimizning ko'p asrlik hayotiy tajribalari va maishiy turmush tarzining bamisoli bir oynasidir. Bu badiiy oynada uning hayotga, tabiatga, inson, oila va jamiyatga munosabati, ijtimoiysiyosiy, ma'naviy- ma'rifiy, axloqiy-estetik va falsafiy qarashlari, qisqasi, o'zi va o'zligi to'la namoyon bo'lgandir. Shuning uchun ham maqollar g'oyatda keng tarqalgan bo'lib, asrlar davomida jonli so'zlashuv va o'zaro nutqiy munosabatlarda, badiiy, tarixiy va ilmiy asarlarda, siyosiy va publitsistik adabiyotda doimiy ravishda qo'llanilib kelgan va qo'llanmoqda.

METODOLOGIYA

O'zbek va nemis xalq maqollari mavzu jihatidan juda rang-barangdir. Agar barcha o'zbek va nemis xalq maqollari keltirilgan to'plamlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularda o'zbek xalqi hayotining har bir jabhasida uchraydigan narsalar va turli xil hodisalarning maqollarda ifodalanishiga guvoh bo'lamiz.

Maqollar kishilarni doim yaxshilikka va ezgulikka, rostgo'ylikka, ilm olishga, kattaga hurmat va kichikka izzatda bo'lishga, kamtarlikka, halol mehnat bilan kun kechirishga, bir-biriga sadoqatli va mehr-oqibatli bo'lishga undab kelgan. Shu tufayli ham maqollar ifodalayotgan ma'no, chiqarilayotgan hukmga ko'ra turli mavzularni qamrab oladi.

Maqollar xalq donishmandligining nodir namunalari sifatida og'zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalqona axloq- odob qoidalari deb atash mumkin. Zero, maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, manaviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining g'oyat ixcham, lo'nda va obrazli ifodasidan tug'ilgan hodisadir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki malum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug'iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo'lib yuzaga keladi. Ular insonlarning turli sohalaridagi faoliyatlari jarayonida uzoq muddatli sinovlardan o'tgan turmush tajribalarining hosilasi, barqaror va o'zgarmas, to'g'ri va haqqoniy xulosasi tarzida yuzaga kelganligini ko'rsatadi.

Maqol atamasi arabcha - qavlun -gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan bo'lib, aytilib yuriladigan ifoda va iboralarga nisbatan qo'llaniladi. Barcha tomonidan deyarli bir xilda aytilib, bir xilda tushuniladigan ibora, ifodalar, asosan, maqol janrini tashkil qiladi.

Demak, xalq maqollari ommaning muayyan voqea, hodisalar haqidagi xulosalarini, hukm va tavsiyalarini o'zida mukammal tarzda mujassamlashtirgan o'ziga xos badiiy shaklga ega bo'lgan ifoda va iboralardan iboratdir.

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sh. Imyaminova va tadqiqotchi Sh. Kamolova o'zlarining "Nemischa-o'zbekcha maqol va matallar lug'ati" kitobiga so'zboshi sifatida keltirgan "Maqol xalq ijodiga yo'g'irilgan kichik asardir" maqollari barcha xalqlar ijodida uchraydigan bir xil shakl va mazmundagi maqollarning tarixi, ilk bor uchragan asar va muallifini keltirib o'tadilar. Masalan:

"Vaqt - bu pul". Bu gapni birinchi marta amerikalik olim va siyosat arbobi Benyamin Franklin (1706-1790) o'zining "Yosh savdogarga maslahat" asarida aytgan. Franklinning bu gapi ishbilarmonlar, bankir va savdogarlarning shoriga aylanib qolgan.

"Omad kuchlilarga kulib boqadi" Bu maqolning muallifi ingliz yozuvchisi va dramaturgi Oskar Uayld (1854-1900)dir.

MUHOKAMA

Maqollarning mavzu ko'lami juda keng. Ular qamrab olmagan jabha yo'q. Bu jihatdan har ikki xalq maqollari bir-biridan qolishmaydi. Bu holatni biz maqollar muqobilida yana kuzatamiz. Dunyodagi barcha xalqlar og'zaki ijodida maqollarchilik shakli va ifoda etayotgan, bildirayotgan mazmunichalik bir-biriga juda yaqin, hatto aynan bir xil bolgan janr yo'q. Bu holatni biz faqat maqollarda ko'rishimiz mumkin. Fikrimizning isboti sifatida o'zbek va nemis maqollaridagi o'xshashliklarni ko'rib chiqsak.

Nemischa "*Der Ton macht Musik*" (*Tovushlar musiqa yaratadi*) maqolida tovushlar birgalikda birikgandagina bir ish (musiqa) chiqara olishi ma'nosi hayotiy o'xshatma orqali berilayotgan bolib, o'zbekcha "*Kuch birlikda*" yoki "*Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar*" maqoliga to'g'ri keladi. Shuningdek, yana bir nemischa "*Begossene Hunde furchten das Wasser*" (*Cho'kkan kuchuk suvdan qo'rqqar*) maqoli o'zbekcha "*Og'zi kuygan qatqni ham puflab ichar*" maqoliga, nemischa "*Der Appetit kommt beim Essen*" (*Ishtaha ovqat paytida keladi*) maqoli o'zbekcha "*Har ishning o'z vaqti bor*" bu qatorni ko'plab davom ettirish mumkin.

XULOSA

Yuqorida biroz maqollar tahlili bilan cheklandik. Ammo diniy, madaniy, axloqiy bir biriga o'xshash, ayniqsa nemis va o'zbek maqollarida solishtirib tahlil qilishga arzigulik maqollar soni beqiyos. Har bir xalqning folklorshunosligi hisoblanmish maqol janriga nazar tashlar ekanmiz biz bu janrning naqadar beqiyos ekaniga guvoh bo'lamiz. Xulosa qilib aytganda qaysi til, madaniyat bo'lishidan qat'i nazar maqollar juda chuqur ma'noli boy janr hisoblanishiga amin bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Imyaminova Sh. Kamolova Sh. Nemischa-o'zbekcha maqol va matallar lug'atining tuzish prinsiplari.// Leksikografiya va frazeografiyaning dolzarb muammolari(nazariya va amaliyot) mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. - T., 2014.
2. Kuvanova Sh. Nemis tili grammatikasidan universal qo'llanma. - T.: Akademnashr, 2013.
3. Markayev.K, Maxmudov N, Xamrayev D, Sprichwörter Пословицы Maqollar. - T.: Meriyus, 2013.
4. Nazarov P., Nemischa-o'zbekcha maqol va matallar. - S.: 2001.
5. Nemischa-o'zbekcha maqol va matallar lug'ati. Tuzuvchilar: Sh Imyaminova. Sh.Kamolova. - T.:MUMTOZ SO'Z, 2013.
6. Xolmatov SH.S, Nobekov Z.T, Nurmatov D.T, Nemischa-o'zbekcha-ruscha maqol va matallar lug'ati - T.: OzDJTU, 2013.
7. O'zbek xalq maqollari. I jild (A-O) - T.:Fan 1987.
8. O'zbek xalq maqollari II жилд (R-X) - T.:Fan, 1987